



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

TALABALARDA MEDIA MADANIYAT VA IJTIMOIIY IDENTIFIKATSIYA O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Raximbayeva Gulyora Ulugbekovna,

Urganch davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: gulyorahabib@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Raqamli media muhitining yoshlarning ijtimoiylashuvi, qadriyatlari, kommunikativ faoliyati va shaxsiy identifikatsiyasiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, media savodxonlikning talaba shaxsining ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni hamda virtual identifikatsiyaning shakllanish mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: media madaniyat, ijtimoiy identifikatsiya, media savodxonlik, virtual identifikatsiya, talaba yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikativ muhit.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ МЕДИАКУЛЬТУРОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИЕЙ У СТУДЕНТОВ

Рахимбаева Гулёра Улугбековна,

Ургенчский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры педагогики и психологии

E-mail: gulyorahabib@gmail.com

Аннотация. В данной статье на научно-теоретической основе анализируются социально-психологические аспекты взаимосвязи медиакультуры и социальной идентификации студентов. Освещается влияние цифровой медиасреды на социализацию, ценности, коммуникативную активность и личностную идентичность молодежи. Также раскрываются механизмы формирования виртуальной идентичности и роль медиаграмотности в социальном развитии личности студента.

Ключевые слова: медиакультура, социальная идентификация, медиаграмотность, виртуальная идентичность, студенческая молодежь, социальные сети, коммуникативная среда.

THE RELATIONSHIP BETWEEN MEDIA CULTURE AND SOCIAL IDENTITY AMONG STUDENTS

Rakhimbayeva Gulyora Ulugbekovna,

Urgench State Pedagogical Institute

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology

E-mail: gulyorahabib@gmail.com

Annotation. This article scientifically analyzes the socio-psychological relationship between media culture and social identification among students. The influence of the digital media environment on students' socialization, values, communication activities, and personal identity is highlighted. The article also reveals the mechanisms of virtual identity formation and the role of media literacy in the social development of student personality.

Keywords: media culture, social identification, media literacy, virtual identity, students, social networks, communication environment.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga tub o'zgarishlar olib kirdi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi talaba yoshlar media makonining eng faol subyekti sifatida axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish jarayonida bevosita ishtirok etmoqda. Shu sababli media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya masalasi zamonaviy psixologiya hamda pedagogikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy identifikatsiya shaxsning o'zini muayyan ijtimoiy guruh, millat, kasb yoki madaniy qatlamning bir qismi sifatida anglashi bilan bog'liq psixologik jarayondir. Ushbu jarayon talabalik davrida ayniqsa intensiv rivojlanadi, chunki aynan shu bosqichda shaxs mustaqil dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy pozitsiyani shakllantira boshlaydi [1].

Zamonaviy media muhiti esa identifikatsion jarayonlarning xarakterini o'zgartirib yubormoqda. Avvallari shaxs identifikatsiyasi asosan oila, ta'lim muassasasi va bevosita ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan bo'lsa, bugungi kunda virtual kommunikatsiya ham ushbu jarayonning muhim omiliga aylandi. Talabalar ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotgani sababli media vositalari ularning ijtimoiy qarashlari va o'zini anglashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [2].

Adabiyotlar tahriri. Media madaniyatning nazariy asoslari. Media madaniyat tushunchasi zamonaviy ilm-fanda shaxsning axborot muhitida ongli faoliyat yuritishi, media mahsulotlarni tanqidiy tahlil qila olishi hamda kommunikativ kompetentligini ifodalovchi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. D. Buckingham media madaniyatni media savodxonlik, axborotni baholash va media makonda mas'uliyatli xulq-atvorning integrativ tizimi sifatida izohlaydi [3].

Media madaniyat komponentlariga ta'rif

1. Axborotni tanlash va tahlil qilish ko'nikmasi. Bu shaxsning turli manbalardan kelayotgan axborotlarni saralash, ularning ishonchligi va mazmunini baholash hamda kerakli ma'lumotni ajratib olish qobiliyatidir. Mazkur ko'nikma insonning yolg'on, manipulyativ yoki zararli axborotlardan himoyalashiga yordam beradi. Talaba axborotni tahlil qilish orqali voqea-hodisalarga nisbatan mustaqil va tanqidiy munosabatni shakllantiradi.

2. Media mahsulotlarni tanqidiy baholash. Bu media kontentning maqsadi, g'oyasi, yashirin ta'siri va auditoriyaga ko'rsatadigan psixologik ta'sirini anglay olish qobiliyatidir. Tanqidiy baholash orqali shaxs reklama, propaganda yoki stereotiplarga asoslangan axborotlarni biryoqlama qabul qilmaydi. Ushbu kompetensiya media manipulyatsiyasining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Virtual kommunikatsiya etikasi. Virtual kommunikatsiya etikasi — internet va ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishning axloqiy me'yorlariga rioya etishdir. U boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish, internetda madaniyatli muloqot qilish, haqorat va tajovuzkorlikdan tiyilish kabi qoidalarni o'z ichiga oladi. Mazkur komponent shaxsning raqamli muhitdagi ijtimoiy mas'uliyatini namoyon etadi.

4. Raqamli xavfsizlik. Raqamli xavfsizlik — shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetdagi xavf va tahdidlardan ehtiyot bo'lish hamda xavfsiz media faoliyatini amalga oshirish ko'nikmasidir. Bu parollarni himoyalash, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, kiberfiribgarlik va zararli kontentlardan saqlanishni o'z ichiga oladi. Raqamli xavfsizlik zamonaviy media madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

5. Axborot manipulyatsiyasiga qarshi psixologik barqarorlik. Bu insonning yolg'on axborotlar, psixologik bosim, ommaviy stereotiplar va manipulyativ media ta'sirlariga nisbatan mustaqil pozitsiyani saqlab qola olish qobiliyatidir. Psixologik barqarorlik rivojlangan shaxs hissiy bosim asosida emas, balki mantiqiy va tanqidiy fikrlash asosida qaror qabul qiladi. Ushbu sifat yoshlarning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda talabalarning aksariyati axborotni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilmoqda. Natijada an'anaviy kommunikatsiya shakllari o'rmini virtual kommunikatsiya egallamoqda. M. Maklyuen media vositalarining inson tafakkuri va ijtimoiy ongiga ta'sirini tahlil qilib, “media — bu inson ongining davomidir” degan konsepsiyani ilgari surgan [4]. Ushbu yondashuv media vositalarining shaxs identifikatsiyasiga ta'sirini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy identifikatsiyaning psixologik mohiyati. Ijtimoiy identifikatsiya tushunchasi ilk bor H. Tajfel va J. Turner tomonidan keng ilmiy asoslangan. Ularning fikriga ko'ra, inson o'zini muayyan ijtimoiy guruhga mansub deb his qilishi orqali ijtimoiy identifikatsiya shakllanadi [5].

Talabalik davri identifikatsion jarayonlarning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. E. Erikson bu davrni “identiklik inqirozi” bosqichi deb ataydi. Ushbu davrda shaxs “Men kimman?” degan psixologik savolga javob izlaydi [6].

Talabalarning ijtimoiy identifikatsiyasi quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- oilaviy muhit;
- ta'lim tizimi;
- referent guruhlar;
- milliy va madaniy qadriyatlar;
- ommaviy axborot vositalari;
- internet va ijtimoiy tarmoqlar.

Bugungi raqamli davrda media vositalari mazkur omillar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Chunki yoshlar ko‘plab ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlarni virtual muhit orqali o‘zlashtirmoqda.

Talabalarining ijtimoiy identifikatsiyasi omillari va ularning ta’siri

Ijtimoiy identifikatsiya – shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat yoki madaniy tizimning bir qismi sifatida anglash jarayonidir. Bu jarayon dinamik bo‘lib, turli ijtimoiy institutlar va ommaviy axborot vositalari ta’sirida uzluksiz shakllanib boradi. Talabalarining ijtimoiy identifikatsiyasiga quyidagi omillar kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi.

1. Oilaviy muhit

Oila – shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv makonidir. Oilada shakllanadigan qadriyatlar, e’tiqod, dunyoqarash va xulq-atvor modellari talabani o‘zini anglash jarayoniga poydevor yaratadi. Oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, tarbiya uslublari, ijtimoiy-iqtisodiy holati va madaniy darajasi talabani o‘zini muayyan ijtimoiy guruhga mansub deb his etishiga bevosita ta’sir qiladi.

2. Ta’lim tizimi

Ta’lim muassasalari talabani bilim olish bilan birga ijtimoiy tajribasini ham boyitadi. O‘quv jarayonida shakllanadigan qadriyatlar, akademik muhit, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan muloqot talabani ijtimoiy identifikatsiyasini rivojlantiradi. Ta’lim tizimi shaxsda kasbiy o‘zlik, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faolligi shakllanishiga xizmat qiladi.

3. Referent guruhlar

Referent guruhlar – shaxs uchun namuna bo‘ladigan yoki unga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy guruhlardir. Talaba o‘zining yaqin do‘stlari, kursdoshlari, sport jamoalari, qiziqish doiralari yoki ma’lum ijtimoiy harakatlar orqali o‘zini anglaydi. Ushbu guruhlar talabani qadriyatlar tizimi, xulq-atvori va ijtimoiy pozitsiyasini shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

4. Milliy va madaniy qadriyatlar

Milliy o‘zlik va madaniy meros shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasida asosiy o‘rin tutadi. Til, urf-odat, an’ana, e’tiqod va milliy g‘urur hissi talabani o‘zini muayyan xalq, millat yoki ma’lumiyat makonga mansub deb his qilishiga yordam beradi. Globallashuv sharoitida milliy va madaniy qadriyatlarining ijtimoiy barqarorlik va shaxsiy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.


5. Ommaviy axborot vositalari

Televizion, radio, gazeta, jurnal, internet nashrlari va boshqa OAVlar jamiyatda mavjud ijtimoiy me‘yor va stereotiplarni shakllantiradi. OAVlar orqali talaba turli ijtimoiy rollar, qadriyatlar va idealalar haqida tasavvur hosil qiladi. OAVlarning axborot siyosati va kontenti talabani ijtimoiy qarashlarini yo‘naltirish yoki manipulyatsiya qilishi mumkin.

6. Internet va ijtimoiy tarmoqlar

Zamonaviy raqamli muhit talabalarining identifikatsion jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan virtual hamjamiyatlar, blogerlar, influencerlar va online kontentlar talabani o‘zini anglashni kengaytiradi. Biroq, bu muhitda sun’iy identifikatsiya, qiyoslash, stereotiplar va axborot manipulyatsiyasi xavfi ham mavjud.

Talabalarining ijtimoiy identifikatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar
 (sxematik model)



1-rasm. Talabalarining ijtimoiy identifikatsiyasi omillari va ularning ta’siri.

Bugungi raqamli davrda media vositalari mazkur omillar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Chunki yoshlar ko‘plab ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlarni virtual muhit orqali o‘zlashtirmoqda.

Media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik. Media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq psixologik jarayonlardir. Chunki shaxs media makonda o‘zining ijtimoiy mavqei, qadriyatlari va guruhviy mansubligini shakllantiradi.

M. Kastelsning ta’kidlashicha, zamonaviy axborot jamiyatida identifikatsiya “tarmoq jamiyati” orqali shakllanadi [7]. Ya’ni inson o‘zini real muhitdan tashqari virtual hamjamiyatlar orqali ham identifikatsiya qiladi.

Talabalar ijtimoiy tarmoqlarda o‘z profilini yaratish, kontent joylashtirish va virtual muloqot orqali “ijtimoiy men” obrazini shakllantiradi. Bu esa virtual identifikatsiya tushunchasining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Virtual identifikatsiya ayrim hollarda real identifikatsiya bilan mos kelsa, ayrim vaziyatlarda sun’iy obraz yaratishga ham sabab bo‘ladi.

Media vositalarining ijtimoiy identifikatsiyaga ta’siri quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Qadriyatlar tizimining shakllanishi. Media kontentlar yoshlarning hayotiy qadriyatlari va ideallariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, blogerlar, mashhur shaxslar va internet fenomenlari talabalarining referent guruhiga aylanishi mumkin. Natijada talaba o‘zini aynan shu guruh vakillari bilan qiyoslay boshlaydi [8].


Milliy identifikatsiyaga ta’siri. Global media makon ayrim hollarda milliy qadriyatlarning zaiflashuviga olib keladi. Shu bilan birga, milliy media mahsulotlar yoshlarning milliy o‘zligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. S. Hantington global madaniy integratsiya sharoitida milliy identifikatsiyani saqlash muhim ekanligini ta’kidlaydi [9].

Kommunikativ faoliyatning o‘zgarishi. Raqamli kommunikatsiya shakllarining kengayishi yoshlarning muloqot madaniyatiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi talabalar ko‘proq virtual muloqotga moyil bo‘lib bormoqda. Bu esa real ijtimoiy munosabatlarning ayrim jihatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Axborot manipulyatsiyasi xavfi. Media madaniyati yetarlicha shakllanmagan shaxs manipulyativ axborotlarning ta’siriga tez beriladi. S. Kara-Murzaning fikricha, ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali inson ongini boshqarish zamonaviy jamiyatning asosiy xavflaridan biridir [10].

MEDIA MADANIYAT VA IJTIMOYIY IDENTIFIKATSIYA O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya bir-biri bilan uzviy bog'liq psixologik jarayonlardir. Shaxs media makonda o'zining ijtimoiy mavqei, qadriyatlarini va guruhniy mansubligini shakllantiradi.



2-rasm. Media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik.

Media savodxonlikning psixologik ahamiyati. Media savodxonlik talabani axborotlarni tanqidiy tahlil qilishi va media ta'siridan himoyalaniishiga xizmat qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan, media savodxonlik quyidagi sifatlarni rivojlantiradi: Media savodxonlikning psixologik jihatdan rivojlantiruvchi asosiy sifatlari. Tanqidiy fikrlash — bu shaxsning axborotni tahliliy asosda qabul qilishi, voqea-hodisalarga mustaqil baho bera olishi hamda turli ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish qobiliyatidir. Zamonaviy media makonda inson bir vaqtning o'zida juda katta hajmdagi axborot oqimiga duch keladi. Ushbu axborotlarning barchasi ham obyektiv yoki ishonchli bo'lavermaydi. Shu sababli talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish media madaniyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash rivojlangan shaxs:

- axborot manbasining ishonchliligini tekshiradi;
- fakt va subyektiv fikrni farqlay oladi;
- manipulyativ ta'sirlarni aniqlaydi;
- stereotiplarga tanqidiy yondashadi;
- hissiy bosim emas, mantiqiy tahlil asosida xulosa chiqaradi.

Psixologik nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlash shaxsning intellektual mustaqilligini rivojlantiradi hamda uni axborot manipulyatsiyasidan himoya qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi noto'g'ri axborotlar, destruktiv g'oyalar va ommaviy stereotiplarga qarshi psixologik immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil qaror qabul qilish — bu shaxsning tashqi bosim va stereotiplardan holi ravishda og'li ravishda tanlov amalga oshirish qobiliyatidir. Media muhitida inson turli reklama, propaganda va ijtimoiy ta'sirlar ostida qoladi. Natijada ayrim yoshlar ommaviy fikr yoki virtual guruhlarining ta'siri asosida qaror qabul qilishga moyil bo'lib qoladi.

Media savodxonligi rivojlangan talaba esa:

- turli nuqtai nazarlarni solishtiradi;
- qarorlarning oqibatini oldindan tahlil qiladi;
- ijtimoiy bosimga berilmaydi;
- mustaqil hayotiy pozitsiyani shakllantiradi.

Psixologiyada mustaqil qaror qabul qilish shaxsning avtonomligi va ichki nazorat lokusi bilan bog'liq hisoblanadi. Bunday shaxs o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qiladi va o'z faoliyatini og'li ravishda boshqaradi. Bu esa talabani barqaror ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy mas’uliyat — bu shaxsning jamiyat, ijtimoiy guruh va atrofdagilar oldidagi axloqiy hamda fuqarolik burchlarini anglashidir. Media madaniyat rivojlangan shaxs internet va ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda o‘zining ijtimoiy javobgarligini his qiladi.

Ijtimoiy mas’uliyat quyidagi jihatlarida namoyon bo‘ladi:

- yolg‘on axborot tarqatmaslik;
- internet etikasi qoidalarga rioya qilish;
- boshqalarning huquq va fikriga hurmat bilan yondashish;
- media makonda tolerantlikni saqlash;
- ijtimoiy barqarorlikka zarar yetkazuvchi kontentlardan tiyilish.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda agressiv kommunikatsiya, kiberbulling va destruktiv kontentlarning keng tarqalishi sharoitida talabalarda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Chunki media muhitdagi har qanday faoliyat nafaqat individual, balki ijtimoiy oqibatlarga ham ega.

Kommunikativ kompetentlik — bu shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda samarali, madaniyatli va maqsadga muvofiq muloqot olib bora olish qobiliyatidir. Raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi natijasida muloqotning yangi shakllari paydo bo‘ldi va bu kommunikativ kompetentlik mazmunini ham o‘zgartirdi.

Media madaniyat kommunikativ kompetentlikning quyidagi jihatlarini rivojlantiradi:

- fikrni aniq va mantiqiy ifodalash;
- virtual muloqot madaniyatiga rioya qilish;
- turli auditoriyalar bilan samarali aloqa o‘rnatish;
- konfliktli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish;
- kommunikativ tolerantlikni rivojlantirish.

Psixologik jihatdan kommunikativ kompetentlik ijtimoiy moslashuv va interpersonal munosabatlarning muvaffaqiyatli shakllanishiga xizmat qiladi. Talabaning kommunikativ faoliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning ijtimoiy identifikatsiyasi ham shunchalik barqaror shakllanadi.

Psixologik barqarorlik — bu shaxsning stress, axborot bosimi, manipulyativ ta’sirlar va turli ijtimoiy-psixologik tahdidlarga nisbatan ruhiy muvozanatini saqlab qolish qobiliyatidir. Zamonaviy media muhiti inson psixikasiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy axborot oqimi, salbiy kontentlar, ijtimoiy taqqoslash va virtual bosim ayrim yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Media savodxonligi shakllangan shaxs:

1. salbiy axborotlarga nisbatan hissiy nazoratni saqlaydi;
2. virtual stereotiplarga to‘liq qaram bo‘lib qolmaydi;
3. manipulyativ ta’sirlarga psixologik qarshilik ko‘rsata oladi;
4. ijtimoiy bosim ostida mustaqil pozitsiyasini saqlab qoladi.

Psixologik barqarorlik yoshlarning internet qaramligi, kiberagressiya va virtual depressiv ta’sirlardan himoyalanişida muhim omil hisoblanadi. Shu bois media madaniyatni rivojlantirish nafaqat axborot savodxonligini, balki shaxsning psixologik xavfsizligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya zamonaviy talaba shaxsining ijtimoiylashuvi jarayonida o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisalar hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida media vositalari nafaqat axborot uzatish funksiyasini bajaradi, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, kommunikativ faoliyati va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlarning identifikatsion jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, virtual identifikatsiya tushunchasining shakllanishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot davomida talabalarning ijtimoiy identifikatsiyasi oilaviy muhit, ta’lim tizimi, referent guruhlar, milliy va madaniy qadriyatlar, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli kommunikatsiya muhiti ta’sirida shakllanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birga, media makon yoshlarning o‘zini anglash, ijtimoiy guruhlariga mansublik hissini rivojlantirish va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Media madaniyati rivojlangan talaba axborotni tanqidiy tahlil qilish, manipulyativ ta’sirlarni aniqlash, virtual kommunikatsiyada axloqiy me’yorlarga rioya qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish

ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa yoshlarning psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va sog'lom identifikatsiyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Aksincha, media savodxonlikning yetarli shakllanmaganligi yoshlarning axborot manipulyatsiyasi, virtual qaramlik, destruktiv g'oyalar va ijtimoiy stereotiplar ta'siriga tushib qolish xavfini oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari global media makonning milliy identifikatsiyaga ham ikki tomonlama ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bir tomondan, global kommunikativ muhit madaniy integratsiya va axborot almashinuvini kuchaytirs, ikkinchi tomondan, ayrim hollarda milliy qadriyatlar va madaniy o'zlikning zaiflashuviga sabab bo'lishi mumkin.

Shu asosda oliy ta'lim muassasalarida media madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik texnologiyalar, media savodxonlik dasturlari, psixologik treninglar va interaktiv metodlarni joriy etish zarur degan xulosaga kelindi. Chunki zamonaviy raqamli muhitda yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash, ularni manipulyativ ta'sirlardan himoya qilish hamda sog'lom ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Kelgusida mazkur yo'nalishda media madaniyatning talabalarning kasbiy identifikatsiyasi, psixologik xavfsizligi, internet qaramligi va virtual xulq-atvoriga ta'sirini empirik jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy istiqbollardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. — Москва: Аспект Пресс, 2018. (48–73-с).
2. Toffler A. The Third Wave. — New York: Bantam Books, 1980.(160–168-p).
3. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. — Cambridge: Polity Press, 2003. (54–61-p).
4. McLuhan M. Understanding Media. — London: Routledge, 2001. (7–18-p).
5. Tajfel H. Social Identity and Intergroup Relations. — Cambridge: Cambridge University Press, 1982. (15–29-p).
6. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. — Москва: Прогресс, 1996. (118–126-с).
7. Castells M. The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business and Society. — Oxford: Oxford University Press, 2001.(95–103-p).
8. Назаров М.М. Массовая коммуникация в современном мире. — Москва: URSS, 2010.(88–96-с).
9. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. — New York: Simon & Schuster, 1996. (114–120-p).
10. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. — Москва: Эксмо, 2005. (210–218-с).
11. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. — New York: NYU Press, 2006. (42–50-p).

Ikramova Aziza Aminovna , Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'rganish tizimlari orqali talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash	136
Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi , Alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	142
Jumayeva Azizabonu Mo'min qizi , Pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	147
Jumayeva Habiba G'afarovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar vositasida talabalarining o'z-o'zini baholash kompetensiyasini rivojlantirish	156
Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevena , Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar	162
Nadixanova Nozima Alisherovna , Yozma madaniyatlararo muloqotni o'rgatishda talabalarining sotsiologik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	167
Очилов Фарход Эгамбердиевич , Трансформация семейных традиций и их влияние на патриотическое воспитание молодого поколения в узбекистане	171
Qurbonova Nafisa Saidjonovna , Differensial ta'lim va uning pedagogik ahamiyati	178
Qo'ldoshev Mehriddin Avezmurodovich , Ahmad Donish ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy kamolotni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlar	182
G.V. Izbullayeva, Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Bo'lajak o'qituvchilarning media-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	187
Qo'chqorov Nodir Bozorovich , Talabalarda iqtisodiy savodxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion va intensiv ko'rinishlari	192
Sadullayeva Zarnigor To'liqjonovna , Talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash darajasini diagnostika qilish va monitoring tizimi	197
Safarova Nigora Nasilloevna , Transformativ ta'limning metodologik asoslari: Tanqidiy pedagogika, refleksiv yondashuv va sotsiokonstruktivizm integratsiyasi	204
Teshayeva Dilnoza Chori qizi , Talabalarda ekologik mas'uliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	210
D.I. Normatova , Ingliz tili o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	217
Jumayeva Habiba G'afarovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion yondashuv orqali talabalarining evristik-kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	222
Raximbayeva Gulyora Ulug'bekovna , Talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik	228
Hamdamova Nigora Olimovna , Pedagogical approaches and methods in understanding semantic content	234
Yaxyayeva Shoiraxon Toxirboyevna , Milliy kontent vositasida bolada tahliliy fikrlashni shakllantirish metodikasi	240
Filologiya fanlari	
Зиядуллаева Гульчехра Фатилло Кызы , Семантические синонимы глагола "Пить чай" И их стилистические особенности	245
Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna , XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning adabiy merosi	250
Axmedova Dildora Bahodirovna, Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi , O'quvchilarning nutqiy etiket kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	255
Ahatova Durdona Davron qizi , Omon Muxtor hikoyalaridagi badiiy zamon va inson tasvirining o'ziga xosliklari	260
Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi , “Korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida ingliz tilida og'zaki nutq hamda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”	264
Nosirova Dilfuza Mustafoyevna , Masallarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari	271
Nosirova Nodirabegim Nodirovna , Til o'rganish jarayonida sun'iy intellektning integratsiyasi: Lingvistik kompetensiyani shakllantirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	275
To'raboyeva Muqaddas, Pirimova Madina Ramazonovna , Ona tili o'qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi: Taqiqotlar va yondashuvlar (alijon hamroyevning ilmiy maktabi misolida)	279
Ijtimoiy fanlar	